

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLGIK INTENSIFIKATORLARNING FUNKSIONAL- PRAGMATIK TADQIQI

Musojonova Matluba Burhoniddin qizi

Farg'ona Davlat Universiteti xorijiy tillar fakulteti 1 kurs magistranti

Bobojonovamatluba5@gmail.com

ARTICLE INFO.

Annotatsiya

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birliklar, intensifikatorlar, frazeologik intensifikatorlar, kuchaytirish, frazeologik kuchaytirgichlar, kognitiv, pragmatik, siyosiy nutq.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida frazeologik intensifikatorlarni funksional va pragmatik foydalanilishi jihatidan o'rganish maqsadida bo'lgan tadqiqot haqida ma'lumot beriladi. Grammatik, mantiqiy xususiyatlar va burilish semantikasiga asoslangan ilgari taklif qilingan yondashuvlar qayd etiladi. Intensifikatorlar sifatida frazeologik burilishlarning ishlashi ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu til birliklarining kuchaytiruvchi ta'siri yana bir bor qayd etiladi. Qiyosiy frazeologik birliklarning tematik belgilariga ko'ra, shuningdek tarjima paytida manba va maqsad tillaridagi yozishmalariga ko'ra tasnifi keltiriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Frazeologiyaning leksikologiya bilan bo'lgan aloqasi uning obyekti hisoblangan so'zning frazeologik intensifikatorlarni hosil qilishda "qurilish material" sifatida xizmat qilishi bilan bog'liq. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, so'z va frazeologik birlik yoki intensifikator o'rtasidagi munosabat muammosi leksik-semantik sath muammosini tilning umumiy sistemasi bilan qiyoslagan holda tadqiq etishda juda muhimdir. Shunga ko'ra frazeologik intensifikatorlar muammosi frazeologlarning diqqat e'tiborida bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bir qator tadqiqotchilar o'z diqqat e'tiborlarini ko'pincha frazeologik tavsifga ega bo'lgan qiyosiy qurilmalarga qaratadilar. Misol uchun: hozirgi zamon fransuz tilida harakat yoki sifat belgilarini aks ettiruvchi qiyosiy frazeologik intensifikatorlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shular jumlasidan sifat, fe'l va ravishli intensifikatorlar sifatida xizmat qiladigan frazeologik intensifikatorlar fransuz frazeologiyasida keng tarqalgandir. Turli xil so'z turkumlari vazifasidagi frazeologik intensifikatorlar til lug'at tarkibini boyitishga va frazeologik-semantikasi nutqda faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, bunday frazeologik intensifikatorlarning nutqda qo'llanishi borliqni obrazli tarzda tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, bu kabi obrazlilik xususiyati

tilda faqat frazeologik intensifikatorlarga xos bo'lib, ular bilan bir qatorda turadigan leksik birliklar esa bundan mustasnodir. V. V. Vinogradov til birliklarini o'rganish zaruratidan kelib chiqqan holda, so'zni o'rganish frazeologik intensifikatorlar ustida olib boriladigan so'z chatishmalari borasidagi kuzatishlar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Shu narsani ta'kidlash joizki, so'z va frazeologik intensifikatorlar munosabatlari haqidagi muammo ularning bir xil til sathiga yoki tilning har xil sathiga tegishlilik masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu muammo tilshunoslikda har xil hal qilingan. Biroq, leksik birlik va frazeologik intensifikatorlar o'rtasida o'xshash umumiy xususiyatlarning mavjudligini hamma e'tirof etadi. Ba'zi tilshunoslar frazeologik intensifikatorlar va leksik birliklar o'rtasidagi jonli aloqalarni, shuningdek, leksik-frazeologik sistemaning mavjudligini tan olgan holda frazeologik intensifikatorlar hech qachon leksik birliklarni takrorlamasligini ko'rsatib o'tadi. N. M. Shanskiy leksik va frazeologik birliklarning funksional va mazmuniy jihatdan o'xshashligi ularning bo'linmas lingvistik turga mansubligi bilan bog'liqligidan kelib chiqqan holda, bu birliklar tilda bir butun holatda o'rganiladigan yagona leksik-frazeologik sistemani tashkil etadi, deb ta'riflaydi. frazeologik intensifikatorlar so'zlarning ekvivalenti ekanligini ko'rsatuvchi nazariya juda kengtarqalgan. Ushbu g'oya tarafdorlarining ko'pchiligi so'z va frazeologik intensifikatorlarning har xil ko'rinishga ega ekanligidan qat'iy nazar, ulardagi ma'noviy munosabatlarning ajralmasligiga va ularning funksional umumiylikka ega ekanligiga asoslanadi. Masalan, N. Umbarov va G. Hamroqulovlar bu muammoning aynan fransuz tili misolidagi yechimini quyidagicha isbotlaydi: "Frazeologik iboralar ko'pincha yagona so'zga ekvivalent bo'la oladilar. Masalan: *prendre une decision* – "qaror" so'ziga to'g'ri keladi.

Ingliz va o'zbek tillarida esa frazeologik intensifikatorlar ko'pincha siyosatchilar va jurnalistlar nutqlarida ko'plab topiladi. Ular o'z ishlarida turli xil ifodali va majoziy til birliklaridan foydalanadilar. Bundan maqsad, albatta, tomoshabinlarga ishonchli va ta'sirchan nutqni yetkazish va o'z ta'sirlarini o'tkazishdir.

Ularining kognitiv ma'nosi esa millat tomonidan qiyinchiliksiz tushuniladi ammo tarjima qilinganda, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bitta yaxlit so'z sifatida tarjima qilinishi yoki tarjima qilinayotgan tilning o'z frazeologik birligiga to'g'ri kelishi mumkin. Hozir quyidagi frazeologik birliklarni ingliz va o'zbek tillaridagi tahlilini ko'rib chiqamiz.

1. "Till/until the cows come home" iborasi eski Angliyada juda keng qo'llanilgan bo'lib, ingliz olimi Collins Cobuildning fikriga ko'ra, ilk bora 1829-yilda qo'llanilgan, ammo undan ancha avval ingliz nutqi amaliyotida paydo bo'lgan. Iboraning ma'nosi – o'zbek tilidagi "tuyaning dumi yerga tekkanda" ma'nosiga juda yaqin keladi. Bu iboraning yaratilish tarixi juda qiziq. Ma'lumki, sigir jonzoti juda dangasa hayvon bo'lib, hech ham yurishda shoshmaydi. Shuning uchun bu ibora "juda uzoq muddatda" yoki "hech qachon" degan ma'nolarni anglatadi.

Misol uchun: 'Britain's politicians should embrace clichés till the cows come home' (The Guardian 2012).

Hasan so'fi: -Suv chiqadi-yu, lekigin boyga yarasha chiqadi. Bu suvdan bizga tuyaning dumi yerga yetganida tegadi, — dedi. M. Ismoilii, «Farg'ona tong otguncha»

2. "Snail's pace" bu ibora 15-asrlarga borib taqaladi. Va yuqoridagi birikma bilan deyarli bir xil ma'noni anglatadi.

Miso uchun: The negotiation pace is too slow, far too slow," Ban told reporters. "It is moving at a snail's pace." (The Guardian 2015).

3. "Crocodile tears" iborasi barchaga ma'lum va mashhurdir. Aslida timsoh yirtqich hayvon hisoblanib yig'lamaydilar, agar yig'lasalar-da, bu yolg'on yig'i hisoblanadi. Masalan, qadim yunon olimi Elianning qayd etishicha, timsoh og'ziga suv to'ldirib olib, uni daryo bo'yidagi so'qmoqqa to'kadi. Shu

so'qmoqdan yurgan odam yo hayvon sirpanib yiqilsa, u uchib borib, g'ippa bosgan va yeb qo'ygan. Iboraning o'zbek tilidagi ma'nosi "yolg'on yi'gi" yoki "shayton yig'igi" frazeologik birliklariga to'g'ri keladi.

Misol uchun: 'For the Prime Minister and Home Secretary to now cry crocodile tears is no consolation, we need rapid investment now.' (The Sun 2019; The world news 2019).

4. "To live or to be in clover" intensifikator birligi Collins Cobuildning lug'atshunosligiga asoslanadigan bo'lsak, "to'kin-sochin hayotda yashamoq" degan ma'noni anglatadi. Ibora 18-asrda muloqotga kirib kelgan. O'zbek tilidagi ekvivalenti "pichog'i moy ustida" deya tahlil qilinadi.

Misol uchun: 'David Cameron still in clover' (The Guardian 2006).

"Hozir, otarchilarning pichog'i moy ustida" (Twitterdan)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abramyan S.A. (2016). Angloyazychnyy politicheskiy diskurs v mezhkul'turnom kontekste. -Yer., Izd-vo YEGU. – 534 s.
2. Alefirenko N.F. (2008). Frazeologiya v svete sovremennyh lingvisticheskikh paradig. M.: JeLPIS. (In Russ.).
3. Alefirenko N.F. (2014). Kognitivno-pragmaticheskaja subparadigma nauki o jazyke. Kognitivnopragmaticheskie vektory sovremennogo jazykoznaniya: sb. nauch. tr. M. 16–27. (In Russ.).
4. Anderwald, L. (2016). I'm loving it—Marketing ploy or language change in progress? *Studia Neophilologica*. <https://doi.org/10.1080/00393274.2016.1208536>
5. Chernikova A.Je. (2015). Problemy kognitivnogo modelirovaniya vo frazeologii. *Kognitivnye issledovaniya jazyka*. 21. 525–527. (In Russ.).
6. Johansson F.M. & Gibbs, R. W. (2012). Embodied Motivations for Metaphorical Meanings. *Cognitive Linguistics*, 23, 251–272.